

## TURLI TIZIMLI TILLARDA BINOMIAL KONSTRUKTSIYALARNING TIPOLOGIK TALQINI

M. X. Tursunova,

Mustaqil izlanuvchi, Termiz davlat universiteti

[m49179046@gmail.com](mailto:m49179046@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932092>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turli tizimli tillarda binomial birliklarning shakllanishi va amal qilishi qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Ingliz va o'zbek tillari misolida binomlarning strukturaviy, semantik va lingvokulturologik parametrlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** juft so'zlar, lingvistik tipologiya, strukturaviy tahlil, komponent, semantika, qiyosiy tilshunoslik.

**Аннотация.** В данной статье с сравнительно-типологической точки зрения исследуются формирование и функционирование биномиальных единиц в языках различных систем. На примере английского и узбекского языков проанализированы структурные, семантические и лингвокультурологические параметры биномиальных конструкций.

**Ключевые слова:** парные слова, лингвистическая типология, структурный анализ, компонент, семантика, сравнительное языкознание.

**Abstract.** This article examines the formation and functioning of binomial units in different systemic languages from a comparative-typological perspective. The structural, semantic, and linguoculturological parameters of binomials are analyzed using the English and Uzbek languages.

**Keywords:** binomials, linguistic typology, structural analysis, semantics, comparative linguistics.

**Kirish.** Hozirgi zamon tilshunosligida tillarni qiyosiy-tipologik o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Xususan, agglyutinatativ (o'zbek tili) va flektiv (ingliz tili) tillarning leksik-frazeologik qatlamini qiyoslash tilning ichki mexanizmlarini ochib berishga yordam beradi [2; 45-b]. Binomial birliklar yoki juft so'zlar tilda turg'unlik darajasi yuqori bo'lgan, ikki komponentning birikishidan hosil bo'lgan birliklardir. Y. Malkiel tadqiqotlariga ko'ra, binomlar tilda "qaytarilmas" (irreversible) xususiyatga ega bo'lib, ularning tartibi mantiqiy asoslangan bo'ladi [4; 112-b]. Ushbu turg'unlik binomial birliklarning nafaqat grammatik, balki semantik butunligini ham ta'minlab, nutq jarayonida tayyor lisoniy qolip vazifasini o'taydi. Binomlar komponentlari orasidagi mantiqiy bog'liqlik ko'pincha ierarxik xarakterga ega bo'lib, ularda "kattadan kichikka" yoki "muhimdan ikkinchi darajaliga" tamoyili ustuvorlik qiladi. Shu sababli, turli tizimli tillarda binomlarning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, har bir xalqning olamni lisoniy anglash va tartibga solish borasidagi o'ziga xos yondashuvlarini ochib beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Nazariy asos sifatida V.D. Arakin va J.B. Buranovlarning qiyosiy tipologiya sohasidagi fundamental ishlari olindi [2, 3]. O'zbek maktabi vakillaridan U.K. Yusupovning qiyosiy tilshunoslikning nazariy asoslari haqidagi qarashlari metodologik baza bo'lib xizmat qildi [8; 56-b]. Binomlarni tahlil qilishda strukturaviy-tipologik va semantik-kognitiv parametrlar mezon qilib olindi. Tadqiqotda

binomial konstruksiyalarning lisoniy tabiati nafaqat ularning tashqi strukturaviy qobig'i, balki ichki semantik bog'liqlik darajasi orqali ham tahlil etildi. Shu bilan birga, komponentlarning o'zaro joylashuv tartibi va ularning tilda qaytarilmas (irreversible) xarakterga ega ekanligi kognitiv modellash usuli yordamida aniqlashtirildi. Metodologik yondashuvimiz turli tizimli tillarda binomlarning shakllanish qonuniyatlarini qiyosiy-kontrastiv tamoyillar asosida tizimlashtirish imkonini beradi.

**Natijalar.** Tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi binomial birliklar asosan lisoniy tejamkorlik tamoyiliga bo'ysunadi. Ingliz tilida komponentlar orasida majburiy ravishda keluvchi 'and', 'or', 'but' kabi bog'lovchilar binomning sintaktik tabiatini belgilasa, o'zbek tilida bu vazifani intonatsiya va defis orqali bog'lanish (asindetik bog'lanish) bajaradi. Masalan, inglizcha "safe and sound" birikmasida bog'lovchi strukturaviy yaxlitlikni ta'minlansa, o'zbek tilidagi "sog'-salomat" birikmasida morfologik birikish ustuvorlik qiladi, bu esa agglyutinativ tillarning ichki qonuniyatlari bilan izohlanadi [3; 92-b].

Binomlarning semantik tahlili jarayonida komponentlar orasidagi ma'no munosabatlarining to'rta asosiy modeli aniqlandi. Sinonimik va antonimik binomlardan tashqari, tillarda " mantiqiy to'ldiruvchi" (complementary) binomlar ham keng tarqalgan bo'lib, ularda komponentlar bir-birini inkor etmaydi, balki umumiy bir tushunchani yaxlitlaydi (masalan, o'zbekcha "idish-tovoq", inglizcha "knives and forks"). Shuningdek, "reduplikativ" binomlar, ya'ni bir so'zning aynan yoki qisman takrorlanishi (masalan, "asta-sekin", "again and again") nutqning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini kuchaytirishga xizmat qilishi tahlil etildi [1; 75-b].

Strukturaviy-tipologik jihatdan binomlarning turg'unlik darajasi ulardagi fonetik vositalar – alliteratsiya (tosh-metin) va ritm bilan bevosita bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Ingliz tilida binomlar ko'pincha qat'iy fiksatsiyalangan tartibga ega bo'lib, ularni o'zgartirish (masalan, "pepper and salt" o'rniga "salt and pepper") til me'yoriga zid hisoblanadi. O'zbek tilida esa bu hodisa milliy dunyoqarash va mantiqiy ierarxiya asosida shakllanadi: odatda juftlikda yoshi ulug'roq, hajmi kattaroq yoki ijtimoiy mavqeyi yuqoriroq tushuncha birinchi o'rinda keladi (masalan, "ota-ona", "aka-uka"), bu esa binomlarning lingvokulturologik xususiyatini belgilaydi [5; 125-b].

**Muhokama.** Binomial birliklarning nutqdagi ekspressiv imkoniyatlari va ularning turg'unlik darajasi o'rganilganda, ushbu konstruksiyalar shunchaki so'zlar jamlanmasi emas, balki tilning kognitiv va madaniy qatlamlarini birlashtiruvchi murakkab mexanizm ekanligi ma'lum bo'ldi. Sh. Safarovning ta'kidlashicha, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan binomlar inson tafakkuridagi olamni idrok etishning turg'un modellarini aks ettiradi [6; 34-b]. Ya'ni, inson miyasi murakkab tushunchalarni juftliklar asosida kategoriyalashga moyil bo'lib, bu jarayon tilda binomial konstruksiyalar shaklida moddiy lashadi.

Tadqiqotimiz jarayonida ingliz va o‘zbek tillaridagi binomlarning turg‘unlik darajasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, har ikki tilda ham 80% dan ortiq holatlarda komponentlar o‘rnini almashtirish mantiqiy yoki uslubiy xatolikka, hatto ma‘noning butkul yo‘qolishiga olib keladi [4; 115-b]. Masalan, ingliz tilidagi “law and order” (qonun va tartib) birikmasini “order and law” shaklida qo‘llash til me‘yoriga zid hisoblansa, o‘zbek tilidagi “bola-chaqa” yoki “oq-qora” birikmalarida ham komponentlar qat‘iy ierarxik tartibga ega. Bu holat binomlarning tilda tayyor lisoniy qolip (formula) sifatida mavjudligini tasdiqlaydi.

Lingvokulturologik jihatdan yondashilganda, binomlar milliy mentalitet va xalqning tarixiy tajribasini o‘zida saqlovchi “madaniy kodlar” vazifasini o‘taydi. V.N. Teliya nazariyasiga ko‘ra, bunday birliklar xalqning qadriyatlar tizimini, ijtimoiy munosabatlarini va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi [9; 156-b]. O‘zbek tilidagi “ota-ona”, “aka-uka”, “opa-singil” kabi binomlarda ijtimoiy yosh va jins ierarxiyasi birinchi o‘ringa chiqsa, ingliz tilida ko‘proq mantiqiy ketma-ketlik yoki ritmik uyg‘unlik tamoyillari ustuvorlik qiladi. Bu esa har bir tilning o‘ziga xos konseptual olam manzarasini yaratishidan dalolat beradi [8; 72-b].

Binomial konstruksiyalarning pragmatik xususiyatlari ularning nutqda urg‘u berish, tushunchani umumlashtirish yoki obrazlilikni kuchaytirish funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Binomlar nafaqat axborot uzatadi, balki so‘zlovchining sub‘ektiv munosabatini ham ko‘rsatadi. Masalan, “uy-joy” deganda shunchaki bino emas, balki insonning hayotiy asosi, oilaviy muhiti nazarda tutiladi. Ingliz tilidagi “kith and kin” (do‘st-yor va qarindoshlar) birikmasi ham yaqinlik aloqalarining yuqori darajasini ifodalash uchun xizmat qiladi [10; 44-b].

Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan binomlar “tarjima qilib bo‘lmaydigan” yoki qiyin tarjima qilinadigan birliklar sirasiga kiradi. G. Salomov ta‘kidlaganidek, binomlarning ekvivalentligini saqlash tarjimondan nafaqat til bilimini, balki madaniy kontekstni chuqur tushunishni talab qiladi [7; 95-b]. Bir tildagi juft so‘z (binom) ikkinchi tilda oddiy so‘z bilan ifodalanishi yoki butkul boshqa obrazli binom bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi “osh-non” binomining ingliz tilidagi funksional ekvivalenti “bread and butter” bo‘lishi mumkin, garchi ularning denotativ ma‘nolari turlicha bo‘lsa-da, har ikkalasi ham “rizq-ro‘z” yoki “tirikchilik asosi” konseptini ifodalaydi [11; 118-b].

V.N. Komissarovning tarjimadagi lisoniy moslik nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, binomial birliklarni tarjima qilishda uch xil strategiya qo‘llaniladi:

1. To‘liq ekvivalentlik (antonimik binomlarda: “black and white” – “oq va qora”);
2. Qisman ekvivalentlik (komponentlardan biri o‘zgarganda);
3. Tavsifiy tarjima (ekvivalent mavjud bo‘lmaganda) [12; 210-b].

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, zamonaviy ommaviy axborot vositalari va badiiy adabiyotda binomlarning yangi turlari (neobinomlar) shakllanmoqda. Bu jarayon

globallashuv va tillararo integratsiya natijasida yuzaga kelayotgan lingvistik hodisa bo‘lib, tillarning leksik boyishiga xizmat qilmoqda. S.G. Ter-Minasova aytganidek, til va madaniyatning o‘zaro aloqasi binomial birliklarda eng yorqin shaklda namoyon bo‘ladi, chunki ular tilning “jonli” va dinamik qismini tashkil etadi [13; 88-b].

Xususan, neobinomlarning shakllanishi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va texnologik o‘zgarishlarning tildagi bevosita aksidir. Ingliz tilidagi “digital and analog” yoki “online and offline” kabi yangi binomial juftliklar bugungi kunda o‘zbek tiliga ham o‘zlashma yoki kalka (nusxa ko‘chirish) usulida kirib kelmoqda. Bu jarayon nafaqat lug‘at boyligining ortishiga, balki tillarning kognitiv modellarida global tushunchalarning universallashtiruviga olib keladi [10; 52-b].

Shu bilan birga, badiiy adabiyotda mualliflar tomonidan yaratiladigan individual binomlar obrazlilikni ta‘minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday birliklar an‘anaviy binomlardan farqli o‘laroq, kutilmagan semantik bog‘lanishlar orqali kitobxonning diqqatini tortadi va matnning pragmatik ta‘sir kuchini oshiradi. Demak, binomlar til tizimining qotib qolgan elementi emas, balki doimiy rivojlanishda bo‘lgan, yangi ma‘no va shakllar bilan boyib boruvchi jonli strukturadir [13; 95-b].

Bundan tashqari, binomlar tilda axborotni uzatishning eng samarali va ixcham usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Birgina “bordi-keldi” yoki “oldi-berdi” kabi juftliklar ortida butun bir ijtimoiy munosabatlar majmuasi yashiringan bo‘lib, ular gapdagi ortiqcha so‘zlarni tejashga xizmat qiladi. Zamonaviy publitsistikada uchraydigan “savol-javob” yoki “yutuq-mag‘lubiyat” kabi juft so‘zlar esa voqealikka bor murakkabligi va ziddiyatlari bilan bir butunlikda ko‘rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan, binomlar tilda mantiqiy izchillikka ta‘minlovchi va fikrni lo‘nda ifodalovchi universal vositadir. Ularning matndagi o‘rni faqat bezak berish emas, balki fikrning aniqligi va ta‘sirchanligini ta‘minlashdan iboratdir.

**Xulosa.** Olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlillar va turli tizimli tillardagi binomial konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish natijasida quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarga kelindi:

Birinchi, binomial birliklar shunchaki ikki so‘zning tasodifiy birikmasi emas, balki tilning leksik-semantik tizimida barqaror o‘rin egallagan, mantiqiy va fonetik jihatdan shakllangan yaxlit lisoniy hodisadir. Ingliz tilida ushbu birliklar asosan analitik usulda, ya‘ni bog‘lovchilar yordamida shakllansa, o‘zbek tilida agglyutinatsiya qonuniyatlariga ko‘ra morfologik yaxlitlik va juftlanish tamoyili asosida yuzaga keladi [3; 102-b]. Bu farqlar tillarning tipologik tabiatidan kelib chiqib, binomlarning nutqdagi sintaktik va morfologik mavqeyini belgilab beradi.

Ikkinchi, binomlarning turg‘unlik darajasi ularning kognitiv asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har ikki tilda ham komponentlar tartibining qat‘iyligi inson tafakkuridagi ierarxik tizimni aks ettiradi. O‘zbek tilida bu ierarxiya ko‘proq ijtimoiy munosabatlar, yosh va jins omillari bilan bog‘lansa, ingliz tilida mantiqiy ustuvorlik va ritmik uyg‘unlik

(alliteratsiya, assonans) birinchi o‘ringa chiqadi [6; 45-b]. Bu esa binomlarni o‘rganish orqali xalqning olamni lisoniy anglash manzarasini tiklash imkonini beradi.

Uchinchidan, binomial konstruktsiyalar lingvokulturologik axborot tashuvchi muhim vositadir. Ularning semantik tarkibida milliy mentalitet, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlar muhrlangan. Tarjima jarayonida ushbu birliklarning ekvivalentini topish murakkab lisoniy jarayon bo‘lib, u nafaqat so‘zma-so‘z o‘girishni, balki har bir tildagi konseptual maydonlarni o‘zaro muvofiqlashtirishni talab etadi [7; 110-b].

Muxtasar qilib aytganda, binomial konstruktsiyalar turli tizimli tillarda o‘ziga xos strukturaviy-semantik qolipga ega bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish tillararo universal va milliy xususiyatlarni aniqlashda fundamental ahamiyat kasb etadi. Ushbu birliklar til egalarining mantiqiy tafakkuri, madaniy merosi va ijtimoiy tajribasini avloddan-avlodga yetkazuvchi o‘ziga xos lisoniy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ushbu mavzuni kompyuter lingvistikasi va korpus tahlili metodlari asosida o‘rganish binomlarning nutqdagi dinamikasini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abramov, G. A. (2020). Tilshunoslik tahlili asoslari. Fan.
2. Arakin, V. D. (2005). Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i russkogo yazikov. Flinta.
3. Buranov, J. B. (1983). Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazikov. Visshaya shkola.
4. Malkiel, Y. (1992). Studies in Etymology and Typology. Routledge.
5. Nurmonov, A. (2015). Nazariy tilshunoslik masalalari. Akademnashr.
6. Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Sangzor.
7. Salomov, G. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. O‘qituvchi.
8. Yusupov, U. K. (2007). Teoreticheskiye osnovi sopostavitel'noy lingvistiki. Fan.
9. Teliya, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. Yaziki russkoy kulturi.
10. Konurbayev, M. E. (2002). Stil ritmizovannoy prozi angliyskogo yazika. MGU.
11. Mollin, S. (2014). The Evolution of English Binomials. Corpus Linguistics and Linguistic Theory, 10(2).
12. Komissarov, V. N. (1990). Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekti). Visshaya shkola.
13. Ter-Minasova, S. G. (2000). Yazik i mejkulturnaya kommunikatsiya. Slovo
14. BBC Learning English. (2023). Vocabulary: Word pairs (Binomials). <https://www.bbc.co.uk/learningenglish/>.
15. Oxford Learner's Dictionaries. (2024). Binomial expressions in English. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>.